

Date: 11th February-2026

NAVOIY ERKIN INDUSTRIAL IQTISODIY MARKAZINING OSIYO VA YEVROPA MAMLAKATLARI BILAN HAMKORLIGI.

Zafar Karimovich Sobirov

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi 2-sonli Toshkent akademik litsey
oliy toifali tarix o'qituvchisi va Ijtimoiy-Siyosiy fanlar instituti
II-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy viloyatida mustaqillik yillarida Navoiy Erkin Industrial iqtisodiy markazining Osiyo va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi chuqur tahlil qilinadi. Ushbu maqola orqali O'zbekiston Respublikasidagi erkin industrial iqtisodiy markazlarning yuksalishi Navoiy viloyati misolida yoritib berishga va bu uchun keng imkoniyatlar yaratilganligiga guvoh bo'lamiz.

Kalit so'zlar: Navoiy viloyati, Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zona, "Agrofesh" qo'shma korxonasi, "Korean Eayer", "Xalqaro valyuta jamg'armasi, Navoiy davlat konchilik instituti

В данной статье глубоко анализируется сотрудничество Навоийского свободного индустриально-экономического центра со странами Азии и Европы в годы независимости в Навоийской области. Через данную статью раскрывается развитие свободных индустриально-экономических центров Республики Узбекистан на примере Навоийской области, а также подтверждается создание широких возможностей для их эффективного функционирования.

Ключевые слова: Навоийская область, Навоийская свободная индустриально-экономическая зона, совместное предприятие «Agrofesh», «Korean Eayer», Международный валютный фонд, Навоийский государственный горный институт.

Abstract : This article provides an in-depth analysis of the cooperation between the Navoi Free Industrial and Economic Zone and the countries of Asia and Europe during the years of independence in the Navoi region. The article highlights the development of free industrial and economic zones in the Republic of Uzbekistan through the example of the Navoi region and demonstrates that broad opportunities have been created for their effective growth and operation.

Keywords: Navoi region, Navoi Free Industrial and Economic Zone, "Agrofesh" joint venture, "Korean Eayer", International Monetary Fund, Navoi State Mining Institute.

2009 yilda Navoiy viloyatida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 40 ta qo'shma korxona davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lib, 37 tasi faoliyat yuritmoqda. Aksariyati Navoiy va Zarafshon shaharlarida joylashgan bu korxonlar AQSH, Panama, Xitoy, Rossiya, Ukraina kabi davlatlarining investitsiyalari yordamida tashkil etilgan.

2010 yilda Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonada 17 ta, jami 180 mln. AQSH dollaridan ortiq miqdordagi investitsion loyihani amalga oshirishga kirishildi.

Bugun u yerda istiqbolli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Janubiy Koreya, Singapur, Xitoy, Hindiston, Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlarning yirik ishlab



Date: 11th February-2026



chiqarish kompaniyalari bilan birgalikda LCD monitorlari, kompyuter, turli xil displeyr, energiya tejovchi yoritgichlar, avtomobillar uchun ehtiyot qismlar, tibbiyot buyumlari, dori-darmonlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qo'shma korxonalari faoliyat yurita boshlaydi. 2009-yilning sentyabr oyida korxonalar o'zining ilk mahsulotini bozorga chiqaradi.

“Arab mamlakatlari bilan hamkorlikda “Agrofesh” qo'shma korxonani tashkil etishda bog`rog`larimizda yetishtirilgan mevani tabiiy ravishda va barcha vitaminlari saqlangan holatda qayta ishlab qadoqlashdan iborat”¹

Iqtisodiy muammolarni yechimini toppish va iqtisodiyotni yuksaltirish maqsadida respublikada birinchi bor viloyatda «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish qudratini yanada oshirish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzulmasini rivojlantirish nazarda tutilgan.

“Avtomobil, temiryo'l va havo yo'llarining eng muhim chorrahasida joylashgan Navoiy shahri aeroporti Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarini Markaziy va Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq hamda yevropa qit'asi mamlakatlari bilan bog'laydi. «Navoiy» aeroportidan havo qatnovi Singapur, Dehli, Bangkok, Frankfurt, Milan kabi o'nlab yirik shaharlarga yo'lga qo'yilgani katta imkoniyatlar eshigini ochib berishi aniq.”¹ Demak, «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasining tashkil etilishi jahon moliya-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish va oldini olish, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash, aholi bandligiga ko'maklashish, eksport qiluvchilarni, zamonaviy korxonalarni va kichik biznesni aniq manzilli qo'llab - quvatlash hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada oshirish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan tizimli chora-tadbirlar tarkibida muhim o'rin egallaydi. Albatta, erkin ishlab chiqarish zonalarida iqtisodiyotning ustun tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb qilish orqali istiqbolli texnologiyalar joriy etiladi, pirovardida mahalliy xomashyolar asosida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqariladi. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida ana shu maqsadli ijtimoiy –iqtisodiy dastur asosida tashkil etilgan zonalar “erkin ishlab chiqarish zonasi”, “ korxonalar zonasi “ tarzida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. "Xalqaro valyuta jamg'armasining 2011 yil noyabr oyida mamlakatimizga kelgan missiyasining bayonotida O'zbekiston izchil o'sishga erishgani va global moliyaviy inqirozga qarshi muvaffaqiyatli choralar ko'rayotgani qayd etildi, shuningdek, o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari saqlanib qolishi haqida ijobiy prognoz bildirildi”²

¹ Xalq so'zi. 2011-yil 2-avgust.

¹ Manba: <http://www.region.uz/news>.

² Karimov I. A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012 yil, 5-bet.

Date: 11th February-2026



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2008 yil 2 dekabrda qabul qilingan "Navoiy viloyatida erkin industrial – iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi farmoni viloyat, xususan, Navoiy shahrining ishlab chiqarish salohiyatini yanada mustahkamlash, transport va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish, yuqori texnologiyalarini joriy etish, xorij investitsiyalarini jalb qilish borasida yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Nega deganda, ushbu hujjatda jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, eng avvalo, to'g'ridan – to'g'ri investitsiyalarni jalib etish bo'yicha qulay shart sharoitlar yaratish, shuningdek, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport–tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlari ko'zda tutilgan. "Erkin industrial – iqtisodiy zona" ning tashkil etilishidan maqsad! Uning kelajakdagi istiqbolli va istiqbolli faoliyatlari iqtisodiyotga qanday foyda beradi.

Hukumatimiz tomonidan qulay investitsiya siyosatini olib borish maqsadida quyidagi tamoyillarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda: tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish; respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalarning keng jalb qilinishini ta'minlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yanada takomillashtirish; yurtimizga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib kiruvchi, milliy xo'jalikning zamonaviy tuzilmasini tashkil etishga ko'maklashuvchi chet el investorlariga nisbatan qulay sharoitlar yaratish siyosatini izchil olib borish; eng muhim ustuvor yo'nalishlarga mablag'larni yo'naltirish¹.

Erkin iqtisodiy zonaning mazkur turi bugungi kunda Osiyoning 20 ga yaqin davlatida, Lotin Amerikasidagi aksariyat davlatlarda, shuningdek, Vengriya, Ruminiya, Buyuk Britaniya, AQShda uchraydi. Erkin iqtisodiy zonaning boshqa turlaridan farqli o'laroq, bu hududda alohida imtiyozli bojxona, valyuta va soliq rejimlari davlat tomonidan ta'minlanadi. Eng muhimi, uning hududidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining asosiy yo'nalishi zamonaviy, xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar hamda modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko'lamda ishlab chiqarishdan iborat. Shu bois, qonunning 7-moddasida erkin industrial-iqtisodiy zona ham erkin ishlab chiqarish zonalari turlaridan biri sifatida belgilandi. Jahonda yuk tashishda lider davlat hisoblanuvchi Koreya Respublikasining "Korean Eayer" avikompaniyasi bilan erishilgan uzoq muddatli kelishuvga asosan Navoiy shahri aeroporti modernizatsiya qilinib, yuqorida ta'kidlangan xalqaro intermodal logistik markaz barpo etilishi va ushbu markazning vazifasi etib Navoiy aeroportiga kelgan yuklarni Markaziy Osiyo mintaqasida avtomobil transportlari orqali hamda xalqaro mintaqada Shimol-Janub va G'arb-Sharq yo'nalishlarida havo kemalari orqali taqsimlash tizimini to'laqonli amalga oshirishdan iborat. Ayni paytda xalqaro intermodal logistik markazda kuniga hozirgi kunda 300 tonna yukni taqsimlash quvvatidagi yuk terminalini ishga tushirildi.

¹ Sobirov A. O'zbekiston Respublikasiga xorijlik investorlarni jalb qilish shakllari. /Iqtisodiyot va ta'lim, 2011 y., 5-son.